


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING  
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**  
(2019-yil yanvar-sentyabr\*)

Respublika bo'yicha joriy yilning yanvar-sentyabr oyida chakana savdo tovar aylanmasi 114 954,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,0 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 18 005,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 30,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 96 948,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 3,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 11 778,3 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,9 % ga kamaygan) tashkil etdi.


**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**  
(mlrd. so'm)



2018-yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xorazm, Sirdaryo, Navoiy, Namangan viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etildi.

\*-dastlabki ma'lumotlar

### Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, %




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 30,2 % ga o'sdi va 18 005,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 15,7 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 96 948,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-sentyabr oyiga nisbatan 3,5 % ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 84,3 % ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, %

(yanvar-sentyabr, mlrd. so'm, ulush %)



**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushi, %**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qashqadaryo (96,9 %), Jizzax (91,0%), Toshkent (90,6 %), Surxondaryo (89,4 %) va Namangan (87,7 %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda.


Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 15,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahrida (27,6 %), Xorazm viloyatida (24,0 %), va Buxoro viloyatida (14,2 %) kuzatilgan.

**Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**


	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %
O'zbekiston Respublikasi	18 005,9	130,2	96 948,0	103,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	484,3	141,9	3 339,1	105,1

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %
<i>viloyatlar:</i>				
<b>Andijon</b>	1 093,9	132,6	7 498,4	103,0
<b>Buxoro</b>	1 009,2	131,2	6 081,9	105,0
<b>Jizzax</b>	367,0	132,4	3 712,1	106,5
<b>Qashqadaryo</b>	214,8	36,8	6 769,0	108,5
<b>Navoiy</b>	605,0	181,4	3 982,8	102,3
<b>Namangan</b>	846,1	161,0	6 048,5	103,6
<b>Samarqand</b>	1 314,1	157,6	8 382,8	102,4
<b>Surxondaryo</b>	742,6	135,8	6 290,3	104,2
<b>Sirdaryo</b>	271,6	231,0	1 768,2	102,5
<b>Toshkent</b>	1 208,4	93,7	11 655,0	106,0
<b>Farg`ona</b>	1 136,8	119,1	7 950,2	103,0
<b>Xorazm</b>	1 136,5	153,8	3 603,2	105,0
<b>Toshkent sh.</b>	7 575,5	133,3	19 866,5	100,4


**Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning respublika chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %**



## Mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, %



## Chakana savdo tovar aylanmasida mulchlik shakllarining ulushi, %



**Mulkchilik shakllari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	Jami (mlrd. so`m)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mlrd. so`m)	davlat mulki (mlrd. so`m)
<b>O`zbekiston Respublikasi</b>	<b>114 954,0</b>	<b>114 745,4</b>	<b>208,5</b>
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	<b>3 823,3</b>	<b>3 822,4</b>	<b>1,0</b>
<i>viloyatlar:</i>			
<b>Andijon</b>	<b>8 592,4</b>	<b>8 590,3</b>	<b>2,1</b>
<b>Buxoro</b>	<b>7 091,1</b>	<b>7 088,4</b>	<b>2,7</b>
<b>Jizzax</b>	<b>4 079,1</b>	<b>4 076,4</b>	<b>2,7</b>
<b>Qashqadaryo</b>	<b>6 983,8</b>	<b>6 981,9</b>	<b>1,8</b>
<b>Navoiy</b>	<b>4 587,8</b>	<b>4 557,1</b>	<b>30,7</b>
<b>Namangan</b>	<b>6 894,6</b>	<b>6 891,8</b>	<b>2,9</b>
<b>Samarqand</b>	<b>9 696,9</b>	<b>9 695,1</b>	<b>1,8</b>
<b>Surxondaryo</b>	<b>7 032,9</b>	<b>7 031,6</b>	<b>1,4</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>2 039,7</b>	<b>2 039,7</b>	<b>-</b>
<b>Toshkent</b>	<b>12 863,4</b>	<b>12 859,8</b>	<b>3,6</b>
<b>Farg`ona</b>	<b>9 087,0</b>	<b>9 087,0</b>	<b>0,0</b>
<b>Xorazm</b>	<b>4 739,8</b>	<b>4 739,1</b>	<b>0,7</b>
<b>Toshkent sh.</b>	<b>27 442,1</b>	<b>27 284,8</b>	<b>157,2</b>

2019-yil yanvar-sentyabr oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan respublikamizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni boshqa hududlar bilan solishtirganda eng yuqorisi Toshkent shahri (10 836,4 ming so`m), Navoiy (4 653,0 ming so`m) va Toshkent (4 414,2 ming so`m) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Buning sababi ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashgan.


2019 yil yanvar-sentyabr holatiga o`rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 432,5 ming so`m (o`tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 5,0 % ga o`sgan). Ushbu ko`rsatkich respublika hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %
<b>O`zbekiston Respublikasi</b>	<b>3 432,5</b>	<b>105,0</b>
Qoraqalpog`iston Respublikasi	2 033,9	107,1
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	2 782,1	104,1
Buxoro	3 721,6	106,4
Jizzax	2 991,8	106,1
Qashqadaryo	2 157,3	100,3
Navoiy	4 653,0	106,7
Namangan	2 485,3	106,2
Samarqand	2 533,2	105,3
Surxondaryo	2 714,3	104,5
Sirdaryo	2 440,5	108,7
Toshkent	4 414,2	103,3
Farg`ona	2 450,6	102,9
Xorazm	2 567,6	111,7
Toshkent sh.	10 836,4	105,6

Shuningdek, 2019-yilning yanvar-sentyabr oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,8 % ni tashkil etib, 3189,6 mlrd. so`mga yetdi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 7,9 % o`sdi. Bunda jami savdo aylanmasining 83,4 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari  
savdo aylanmasi hajmi  
(mlrd. so`m)




Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalarining  
savdo aylanmasi ulushi, %





Hududlar kesimida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi bo'yicha mulchlik shakllarining ulushi, %



Mulkchilik shakllari bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi

	Jami (mln. so'm)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mln. so'm)	davlat mulki (mln. so'm)
O'zbekiston Respublikasi	3 189 638,6	3 025 918,6	163 720,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	120 055,0	119 869,5	185,5
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	96 701,3	96 701,3	-
Buxoro	226 375,0	226 327,7	47,3
Jizzax	82 331,7	82 060,3	271,4
Qashqadaryo	144 701,8	144 427,2	274,6
Navoiy	103 595,6	94 086,9	9 508,7
Namangan	99 895,5	99 224,6	670,9
Samarqand	217 885,4	217 057,4	828,0
Surxondaryo	135 450,2	135 026,8	423,4

	Jami (mln. so`m)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mln. so`m)	davlat mulki (mln. so`m)
Sirdaryo	38 300,5	38 300,5	-
Toshkent	329 176,1	328 207,9	968,2
Farg`ona	150 194,7	150 193,1	1,6
Xorazm	64 356,2	63 860,4	495,8
Toshkent sh.	1 380 619,5	1 230 574,9	150 044,6


## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-sentyabr\*)

Yil boshidan respublika bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 56 710,2 mlrd. so'mni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,4 % ga o'sgan.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-sentyabr oyi yakunlariga ko'ra, 40 178,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,0 % ga o'sgan. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 70,8 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa viloyatlar bilan taqqoslanganda, Toshkent shahrida (80,1 %), Farg'ona (79,3 %) va Buxoro (66,6 %) viloyatlarida yuqori bo'lgan.

### Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %




\*dastlabki ma'lumotlar

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 29,2 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Toshkent (53,1 %) va Navoiy (56,8 %) viloyatlarida kuzatildi.


### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %
<b>O`zbekiston Respublikasi</b>	<b>56 710,2</b>	<b>106,4</b>	<b>16 531,8</b>	<b>109,7</b>	<b>40 178,4</b>	<b>105,0</b>
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1 268,7	114,6	541,4	138,8	727,4	101,4
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	1 944,2	104,4	626,4	107,2	1 317,7	103,1
Buxoro	1 660,5	97,8	553,9	84,5	1 106,6	106,1
Jizzax	1 657,0	118,3	680,5	121,8	976,5	116,0
Qashqadaryo	1 983,3	96,2	747,2	81,7	1 236,1	107,8
Navoiy	1 623,6	102,2	921,6	103,8	702,1	100,2
Namangan	1 616,1	107,7	809,0	114,8	807,1	101,5
Samarqand	4 025,8	109,3	1 192,2	130,2	2 833,6	102,4
Surxondaryo	1 736,5	99,4	557,7	86,4	1 178,8	107,1
Sirdaryo	1 046,9	98,5	371,0	90,0	675,9	103,9
Toshkent	5 037,0	92,6	2 672,7	84,2	2 364,3	104,3
Farg`ona	3 740,0	108,5	773,1	109,3	2 966,8	108,3
Xorazm	1 366,4	104,9	526,1	101,5	840,4	107,1
Toshkent sh.	28 004,3	110,4	5 559,2	138,9	22 445,1	105,0

## Mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi, %



## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulchlik shakllarining ulushi, %




**Mulkchilik shakllari bo'yicha  
ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi**

	Jami (mlrd. so`m)	<i>shu jumladan:</i>	
		nodavlat mulki (mlrd. so`m)	davlat mulki (mlrd. so`m)
<b>O`zbekiston Respublikasi</b>	<b>56 710,2</b>	<b>56 647,8</b>	<b>62,4</b>
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1 268,7	1 268,7	-
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1 944,2	1 943,9	0,2
Buxoro	1 660,5	1 660,5	-
Jizzax	1 657,0	1 657,0	-
Qashqadaryo	1 983,3	1 983,3	-
Navoiy	1 623,6	1 622,8	0,8
Namangan	1 616,1	1 616,1	-
Samarqand	4 025,8	4 025,8	-
Surxondaryo	1 736,5	1 736,4	0,1
Sirdaryo	1 046,9	1 046,9	-
Toshkent	5 037,0	5 035,6	1,4
Farg`ona	3 740,0	3 740,0	-
Xorazm	1 366,4	1 366,4	-
Toshkent sh.	28 004,3	27 944,4	59,9

Joriy yilning yanvar-sentyabr oyi yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi 56 710,2 mlrd. so`mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi 56 647,8 mlrd. so`mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan 62,4 mlrd.so`mni tashkil etdi. Ko`rsatkichlarni hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo`lsak, respublika ulgurji savdo aylanmasida yuqori ulush Toshkent sh. 49,4 %, Toshkent 9,0 %, Samarqand 7,1 %, Farg`ona 6,6 % viloyatlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining  
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, %



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'atlari Surxondaryo (99,4 %) Buxoro (97,8 %), Qashqadaryo (96,2 %), viloyatlarida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi boshqarmasi  
Tel.:71-230-80-42 (43)